



Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

ULUG' MA'RIFATPARVAR ALLOMA MAHMUDXO'JA BEHBUDIY TAVALLUDIGA 150 YIL



Muattar UBAYDULLAYEVA,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
muattarubaydullayeveva39@gmail.com
m.u.ubaydullayeveva@buxdu.uz

KASBGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK SEMANTIK XOSLANISHI

Annotatsiya: metaforik iboralar hamda ko'plab grammatik iboralar ixtisosli nutqlarda yuzaga kelgan. Adabiy tilda barcha inson faoliyat turlari o'zining so'z boyligi, ayniqsa metaforik nutqlarda maxsus iboralariga ega. Bizning nutqimiz hayotning bitmas boyliklarini, uning o'zaro bog'liqligini, barcha fikr va his-tuyg'ularimizni to'liq namoyon eta olishga qodir emas; badiiy til garchi so'z yasash imkoniyatlari cheklangan bo'lsa-da, bizga hamma vaqt bildir-moqchi bo'lgan fikrimizning o'rnini bosa oladigan, unga yanada kengroq ma'no o'ttenkalarini qo'sha oladigan maxsus terminlar berishni taqozo etadi.

Kalit so'zlar: frazeologizm, leksema, komponent, nazariya, birikma, tip, stilistika, tilshunoslik, fraza, sintaksis

Аннотация: метафорические выражения и многочисленные грамматические обороты возникли в специализированных речевых формах. В литературном языке все виды человеческой деятельности имеют свой словарный запас, особенно в метафорической речи, где используются специальные выражения. Наша речь не способна полностью выразить безбрежное богатство жизни, её взаимосвязь, все наши мысли и чувства; хотя возможности создания слов ограничены, художественный язык требует использования специальных терминов, которые могут дополнить смысл и передать более глубокие оттенки мысли, которые мы хотим донести.

Ключевые слова: фразеологизм, лексема, компонент, теория, сочетание, тип, стилистика, языкознание, фраза, синтаксис.

Annotation: metaphoric expressions and numerous grammatical constructions have emerged in specialized speech. In literary language, all types of human activity have their own vocabulary, especially in metaphorical speech, where special expressions are used. Our speech is not capable of fully expressing the endless richness of life, its interconnections, and all our thoughts and emotions; although the possibilities for word formation are limited, artistic language demands the use of special terms that can add broader meanings and nuances to the thoughts we wish to convey.

Keywords: phraseology, lexeme, component, theory, combination, type, stylistics, linguistics, phrase, syntax.

Kirish. Idiomalar turli soha vakillari yoki sport bilan (barcha inson faoliyat turlari) shug'ullanadigan xalq tomonidan yaratilgan lo'nda, jonli, ifodali nutq birligi bo'lib, ularni nutqda ishlatish bir qancha qulayliklarni yuzaga keltiradi. Suvdagi dengizchilar, o'rmondagi ovchilar, daladagi dehqonlar, qozon tepasidagi osh-pazlar – umuman, buyruq berish istagida bo'lgan kasb egalari o'z sohalariga oid yorqin so'z birikmalari hamda go'zal metaforalarni qo'llay olganlar. Oqibatda, bu nutqiy ifodalarning ba'zilar yanada keng ma'no kasb etib, shunga o'xshash vaziyatlar yoki boshqa joylarda, ko'pincha hazilomuz tarzda ishlatiladigan bo'ldi. Shunday qilib, "dengizchi o'zining dengizga oid iboralarini, baliqchi, uy bekasi, sportchi qaysi mavzuda so'z olib borishlaridan qat'i nazar o'z iboralarini keng qo'llay boshlaganlar va ushbu yorqin va ifodali iboralar asta-sekin adabiy tilga kirib uni yanada shakllantirib boyitib boradi".

Ingliz tilida dengiz bilan bog'liq turli xil idiomalar mavjud. Yorqin va ifodali nutq egalari dengizchilar o'zlarining maxsus birikmalariga boydirlar. Masalan;

to drop the pilot (uchuvchi xizmatlaridan bosh qaytarish) – yaxshi maslahatgo'ydan bosh tortmoq

ma'nosida. Shuningdek, ingliz tilida ov va poyga bilan bog'liq mashg'ulot turlari haqida yaralgan ko'pgina iboralar mavjud.

O'zbek tilida qishloq xo'jaligi sohasiga oid frazeologik birliklar tez-tez uchray turadi. O'zbek tili matal va maqollarida cho'pon, tegirmonchi, dehqonchilik kabi faoliyat turlari o'z aksini topgan. Masalan: **cho'ponning tayog'idan to'g'ri (halol, haqgo'y inson haqida); dehqon yomg'irda tinadi (ishga qobiliyatli); cho'pon o'lganda (tun-u kun ishlaydigan inson haqida); tegirmonchidan un so'rama (xasis inson haqida).**

Ko'pgina yorqin frazeologik birliklar oshxonada paydo bo'lgan. Bunday iboralar ayollar tomonidan yaratilganligi ehtimoldan xoli emas, albatta. Bunday til birliklari hayotiy tajriba va donishmandlikdan kelib chiqqanligi ma'lum. Masalan:

Ingliz tilida: too many cooks spoil the broth (said when there are too many people involved in trying to do the same thing, so that the final result will not be good) yoki o'zbek tilida: ataladay suyuq (ojiz).

Frazeologik lug'atlarning ko'pchiligida xalq qiziqishlari va har kunlik mashg'ulotlari bilan chambarchas

bog'langan xalqqa tasvirli va idiomatik ifodalarni aks etadilar. Bu ba'zida butkul savodsiz va chalasavodlilar ijodlarining natijasidir, holbuki, idiomalar yoki eng chiroyli obrazli ifodalar kutubxona yoki mehmonxonalarda emas, balki oshxona, og'lxonalarda paydo bo'lgan.

Butunlay olganda har qanday tilning frazeologik lug'at tarkibi o'zining milliy xususiyatlariga egadir. Ikkita yoki undan ko'p tillarning frazeologik tarkibining farqi aniq nimada namoyon bo'lishini faqatgina ularning taqqoslab o'rganilishida aniqlash mumkin. Albatta, bu farq taqqoslanadigan tillarning genetik aloqasi qanchalik uzoqlashgan bo'lsa, shunchalik bu farq chuqurroq bo'ladi. Va aksincha, tillar qanchalik yaqin bo'lsa shunchalik frazeologiya sohasida ularda ko'p o'xshash xususiyatlar seziladi.

O'zbek tilida shunga o'xshash frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ular quyidagilar: bo'zchi belboqqa yalchimas; oshpazning qozoni hammavaqt qora.

The baker's dozen; the butcher, the baker, the candlestick maker frazeologizmlarida tadqiqot qilinuvchi birlik to'g'ri ma'noda ishlatilyapti. Boshqa frazeologizmlarda esa ko'chma ma'noda. To spell the baker frazeologizmida harakatning o'xshashligiga asoslangan (kasb nomlarida metaforik ma'no ko'chish yo'li asosida) "baker" komponentiga ega barcha frazeologizmlar haqiqiy inglizcha bo'lib hisoblanadi, ulardan ba'zilari ingliz turmushining ba'zi bir tomonlarini ko'rsatadilar. Masalan: the baker's dozen – shayton dyujini. Qadimgi ingliz odatlari bo'yicha non sotuvchilari bo'lka sotadiganlardan 12 ta non o'rniga 13 ta nonni olganlar, shunda o'n uchinchi sotuvchilar daromadi hisobidan borgan.

Pull devil, pull baker – qo'g'irchoqli tomosha bilan bog'liq ibora, bo'lka sotuvchi bilan shaytonning mushtlashish sahnasidan kelib chiqqan.

O'zbek tilida aytib o'tilgan frazeologizmlarning komponentlari ham ko'chma ma'noda ishlatiladi.

"Too many cooks spoil the broth", "every cook praises his own broth", "head cook and bottle washer" frazeologik birliklarida "cook" komponenti obrazli asosni yaratishda ma'noli markaz bo'lib xizmat qilyapti.

"God sends us meat and the devil sends us cooks" frazeologik birligida "cooks" semantik markazdir ammo o'z ma'nosida.

"Too many cooks spoil the broth" ingliz frazeologizmining ekvivalenti bo'lib o'zbek tilida "bakovul ko'paysa osh sho'r bo'ladi" frazeologizmi hisoblanadi.

O'zbek tilida esa "haydovchi" oti 1 ta frazeologizmining komponentidir. Ingliz tili leksik birligi bo'lmish "shepherd" 3 ta frazeologik birlikning komponentidir. O'zbek tilidagi "cho'pon" oti ingliz tilidagi "shepherd" oti bilan taqqoslanganda ko'proq unumdorli bo'lib hisoblanadi. Frazeologik birliklar berilgan komponentlar bilan taqqoslanayotgan tillarda qadimgi bo'lib hisoblanadilar, masalan: "three tailor's of Tooley Street" (o'zini butun xalq vakili deb hisoblovchi odamlar guruhi). Ingliz siyosiy arbobi D. Konningning guvohligi bo'yicha Tuli

ko'chasidan uchta tikuvchi arznoma bilan parlamentga murojaat qilganlar, bu arznoma shunday boshlanadi: "We people of England" Shunday qilib bu hol paydo bo'ldi.

Taqqoslanadigan tillarda frazeologik birliklarning obrazli asoslarini tanlashda milliy o'ziga xoslik aks etadi. Shunday qilib o'zbek tilida "tikuvchi" so'zi "ovchi", "suvchi" va boshqa so'zlar bilan qofiyani tuzadi, ammo komponentli tarkib va obrazli asos farq qiladi. "Tinker", "tailor", "soldier" va "three tailor's of Tooley Street" frazeologik birliklarida tadqiqot qilinayotgan leksik birlik metonimiya vositasida obrazli asosni yaratishda ishtirok etadi. To'g'ri ma'noda tailor, merchant tailor va tom tailor frazeologizmlar tarkibiga semantik markaz sifatida kiradi, shunda komponentlar semantikasi frazeologik birliklarning semantikasini oldindan aniqlashga yordam beradi.

Shunday qilib, kasb oti komponentiga ega frazeologik birliklarning taqqosli tadqiqoti (jismoniy mehnat sohasida) semantika komponentli tarkib, obrazli asos nuqtayi nazaridan quyidagi guruhlariga ajratishga imkon beradi:

1. Boshqa tilda semantik moslikka ega, ammo komponentli va obrazli tarkib bilan farq qiluvchi frazeologizmlar:

"Head cook and bottle washer", "too many cooks spoil the broth", "the shoemaker's wife is the worst shod" frazeologizmlari o'zbek tilidagi "bakovul ko'paysa osh sho'r bo'ladi" frazeologizmlari mos keladi.

2. Bu guruhga semantik jihatdan moslikka ega bo'lmagan, qadimgi ingliz va o'zbek frazeologizmlari kiradi: baker's dozen

Tilda bajarilgan funksiyalar bo'yicha ingliz va o'zbek tillarining frazeologik birliklari ikkita katta guruhga bo'linadi: kommunikativ funksiyaga ega bo'lgan va bo'lmagan frazeologizmlar. Shunday qilib kommunikativ funksiyaga ega bo'lgan frazeologik birliklar ikkiga kommunikativ va nominativlilarga bo'linadi. Ingliz va o'zbek tillarida kasbga oid frazeologik birliklarning nutqiy faolligini aniqlash uchun ingliz tilining eng ko'p tarqalgan shaxs oti komponenti bilan yasalgan 24 ta frazeologik birliklari tahlil qilinadi:

1. Baker: to spell the baker; baker's dozen; the butcher, the baker, the candlestick maker; pull devil pull baker – nonvoy.

2. Builder: Jerry – builder – quruvchi.

3. Busman: busman's holiday – avtobuschi.

4. Butcher: the butcher, the baker, the candlestick maker; butcher's bill, butcher's meat – qassob.

5. Carpenter; such carpenters such chips – duradgor.

6. Cobbler: shoemaker: a cobbler must stick to his last, the shoemaker's wife is the worst shod; shoemaker's stock – etikdo'z.

7. Cook: head cook and bottle washer; son of the

sea cook; too many cooks spoil the broth; every cook praises his own broth; God sends us meat and the devil sends cooks; cold cook – oshpaz.

8. Driver: back-seat driver – haydovchi.

9. Fisher: the great fisher of souls – baliqchi.

10. Hatter: mad as a hatter – telpakdo'z.

11. Hearer: hearers of wood, drawers of water – daraxt kesuvchi.

12. Hunter: lion hunter; fortune hunter – ovchi.

13. Glazier: Is your father a glazier? – shisha kesuvchi.

14. Labourer: the labourer is worthy of his fire; labourers in the vineyard – mehnatkash.

15. Navvy: to work like a navvy – harbiy.

16. Nurse: dry nurse; wet nurse – hamshira.

17. Potter: clay in the hands of the potter – kulol.

O'zbek tilidagi kasbga oid frazeologik birliklar:

1. Bo'zchining mokisidek qatnamoq (tez harakat):

Qudasi ham uning ishxonasiga bo'zchining mokisidek qatnaydigan bo'lib qoldi, Ashirmat (A. Qahhor)

2. Ovchining tozisi bo'lmoq (yugurdak):

Salimboy shu kunlarda ovchining tozisi bo'lib qolgan.

3. Oshpazning kapkiri (har ishga aralashmoq):

Har ishga oshpazning kapkiri bo'lavermang – dedi ammasi. (S. Abduqahhor)

4. Qassobga go'sht qayg'usi (manfaatdorlik):

Qassobga go'sht echkiga jon qayg'usi deganlari rost ekan. (M. Murod)

5. Kosagardan bir puf (sirini yashirmoq)

Xalqimizda kosagardan bir puf degan naql bor. Siz ham bo'sh kelmang, do'stim. (A. Muxtor)

6. Cho'ponning cho'lig'i (yugurdak)

Bunday ishing yaxshi emas, cho'ponga cho'liqlik senga yarashmaydi. (S. Ahmad)

7. Karnaychidan bir puf (biror narsa haqida xabar bermoq)

Karnaychidan bir puf deb, yuribsizmi? (O. Salom)

Tadqiqot qilinayotgan guruhlarining nominativ frazeologik birliklari. Nominativ frazeologik birliklar atash ma'nosiga ega bo'lib ular shaxs va predmetlarning ko'rinishi, xatti-harakati, holati, sifatini bildiradi. Nominativ frazeologik birliklarga o'zining leksik va grammatik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi leksik birliklar kiradi:

Substantivli: baker's dozen, Jerry Builder, butcher's bill, busman's holiday, ishga zo'r, zo'r dehqon ishchi cho'pon.

Sifatli: mad as hatter, hungry as a hunter, ammamning buzog'i (bo'sh).

Fe'illi: to spell the baker, to work like a navy, not to care a tinker's curse, og'zidan bodi kirib shodi chiqdi.

Kasbga oid (nominativ) frazeologik birliklarning ayrim semantik jihatlar. Tadqiqot qilinayotgan nominativ frazeologik birliklar keng semantik hajmga ega. Ular predmet, hodisa va holatlarni belgilaydi. Kasbga oid frazeologik birliklarning ko'pchiligi inson va inson mehnat faoliyati bilan bog'langan tushunchalarni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A. Frazeologizmlarning ekspressivlik xususiyati. – T., O'TA, 1976. 5-son.
2. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – T., Fan, 1983.
3. Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии. – М. 1963.-С.46-49.
4. Ахманова А. С. Словарь лингвистических терминов. – М., СЭ.1966.-С.17-21.
5. Antrushina G.V. English Lexicology. – М. 1985.
6. Bafoyeva M. Badiiy nutqda frazeologik sinonimlardan foydalanish. – T., O'TA, 2003. 2-son. 43-45-betlar.
7. Doniyorov X. Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. – T., Fan, 1988.
8. Федулёнок Т.Н. Английская фразеология. – Архангельск, 2000.132с.
9. Gizburug G.V. A Course in Modern English Lexicology. – М. 1966.
10. Haydarov A., Choriyeva Z. Ingliz tilida frazeologik birliklarning semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlari. Tilning leksik-semantik tizimi va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinxroniya, diaxroniya materiallar to'plami. – T., Muharrir, 2012. 8-10-betlar.
11. Haydarov A., Jo'raqulova G. Frazeologik iboralar tarjimasida. Tilning leksik-semantik va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinxroniya, diaxroniya materiallar to'plami. – T., Muharrir, 2012. 10-13-betlar.



Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Tahrir hay'ati:

Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'liqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Bahodir Jovliyev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Husniddin Norqulov
Odiljon Boynazarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
Yuldosh Raxmatov
Ramziddin Abdusatorov
Feruza Manukyan
Gulchexra Keldiyorova
Gulsanam Xolikulova
Komiljon Qarshiyev
Svetlana Umirova
Xolmo'min Fayzullayev
Nilufar Namazova
Dilbar Niyazova
Sayyora Halimova
Shaxnoza Yunusova
Nigoraxon Ro'zibayeva
Tadjixon Sabitova
Nigoraxon Ro'zibayeva
Ra'no Mullaaxodjayeva

Axborot hamkorimiz:

TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
ILMIY-METODIK JURNALI

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Muharrirlar:

Bibimariyam RAHMONOVA
Shabnam G'ANIYEVA
Bonu DO'SMATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDOQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (90) 322-87-16.

e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com



Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Ilmiy-metodik elektron jurnal

M U N D A R I J A

DOLZARB MAVZU

Dildora Kenjayeva.

Buyuk mutafakkirlarning pedagogik
g'oyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga
tatbiq etish texnologiyasi 2

Saodat Kambarova.

Adabiyot darslarida vizual ta'limning
gnoseologik va empirik xususiyatlari . 4

Tadjixon Sabitova. Go'ro'g'li
turkumidagi dostonlarni qiyosiy
o'qitishning innovatsion texnologiyalari
7

Sulaymon Xaydarov. Yoshlarda
vatanparvarlik hissini tarbiyalashda
"Boburnoma" asariga ishlangan
miniatyuralarning ahamiyati..... 11

Durdona Rasulmuhamedova.

Huquqiy ta'limda
badiiy adabiyotning o'rni 13

TILSHONOSLIK

Maftuna Baxtiyorova.

Badiiy asarlarda antroponim va
toponimlarning konnotativlik
ahamiyati 16

Zaxro Xalilova. Ingliz, hindiy va
o'zbek tillaridagi hisob so'zlarning
tilshunoslikda o'rganilishi 19

Nigora Rahimova. O'zbek
tilshunosligida tibbiy terminlar
tadqiqining asosiy yo'nalishlari 23

Nafosat Oromova. Adabiy ta'limda
badiiy asar tili ustida ishlashning
o'ziga xos xususiyatlari 25

Madina Shakirova. Sariq rangning
madaniyatga xos semantik
xususiyatlari 28

Gulnoza Narziyeva. Frazologik
birliklarda milliy-madaniy
kodning ifodalanilishi 30

Умида Пулатова.

Лингвометодические основы
формирования у студентов-юристов
навыков письменной речи 33

Валентина Хегай. Системный
стилистический анализ
публицистического текста 36

Maxfurat Omonova. Approaches and
Methods in Language Teaching:
CLT and TPR 41

Maxfurat Omonova. Approaches and
Methods in Language Teaching:
CLT and TPR 41

ADABIYOTSHUNOSLIK

Kandilatxan Iusupova.

Sharlotta Brontening
"Jeyn Ey" romanida ijtimoiy
hayot va individ o'rtasidagi
kurash tasviri 44

Sobira Tirkasheva.

Zamonaviy nasrda
ismlar poetikasi 47

Ro'zixon Mavlonova, Javlonbek Mavlonov.

"Husn bog'i" – qadd-u qomat ramzi
yoxud "Husn bog'ining bo'lur erish
niholi o'zgacha" 49

Тимур Аюпов,

Гульчехра Давлятова.

Художественный стиль,
как способ конструирования
реальности в романе раннего
пелевина «Чапаев и пустота» 53

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli
qarori bilan Filologiya, Pedagogika hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik
dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrdir. <https://oak.uz/pages/4802>*

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

Nilufar Kadirova.

Tanqidiy tafakkurni anglash texnologiyasi:
Tajriba va mulohazalar..... 56

Feruza Tashpulatova.

Muloqot jarayonida tinglab tushunish
ko'nikmasini mashqlar sistemasi orqali
takomillashtirishning ahamiyati..... 60

Zebo Azizova. Sinfdan tashqari o'qish darslarini
innovatsion texnologiyalar asosida
tashkil etish mexanizmlari..... 63

Mashrabxon Umarova. Boshlang'ich
sinflarda interfaol metodlarni qo'llash orqali
samaradorlikka erishish..... 65

Ug'iloy Quldosheva.

Sinfdan tashqari ishlarda boshlang'ich
sinf o'quvchilarining ona tiliga
qiziqtirishning metodik imkoniyatlari 67

Наргиза Диёрова. Образовательные
технологии преподавания русского языка в
нефилологических вузах 69

Шавкат Нишанов. Вопросы о
лингводидактических основах формирования
профессиональной компетенции будущих
учителей русского языка 72

Shahnoza Gaffarova. The benefits of using
interactive technologies in the higher and secondary
education system..... 76

TADQIQOTLAR

Musallam Ortikova. Oilada o'smirlarda
xorijiy tillar asosida tolerantlikni rivojlantirish
mexanizmlari 79

Munavvar Fayzullayeva. Jon Ernest Steynbek
asarlarida "Ona" tushunchasi tavsifi 82

San'at Yusupov. Qoraqalpog'istondagi
etnonim, oykonim, fitonim, zoonim komponentli
nekrotoponimlar..... 84

Zebo Umarova. Ingliz tilida turizmga oid
leksikaning rivoji va o'rganilish tarixi..... 87

Madina Umirqulova. Til va madaniyat o'rtasidagi
o'zaro aloqalar..... 90

Umida Namazova. Jurnalistikaning paydo
bo'lishi va rivojlanishi: matbaachilikdan raqamli
davgacha..... 92

Sohiba Nasimova. Diminutivlarning lingvistik tabiati
xususida 94

Sadoqat Sotvoldiyeva. Samar Bonuning bir she'riga
lingvopoetik baho..... 96

Yulduz Safarbayeva. Turkiy tillarda "tuya"
komponentli frazemalarning
struktur-semantik xususiyatlari 99

Лола Кадирова.

Словообразовательная
структура игровой спортивной терминологии
в английском языке..... 101

Исмигуль Саттарова.

Метод контраста как основной инструмент
создания образов в романе у.
Теккеря «ярмарка тщеславия» 103

Наргиза Хайруллаева.

Культурно-лингвистические основы перевода
в преподавании испанского языка:
Теоретический анализ и практические
рекомендации 106

Гулбахор Асатова. Когнитивные подходы к
изучению немецкого языка:
теория и практика 108

Махбуба Садикова. Формирование
фразеологической компетенции у обучающихся
на уроках испанского языка 110

Махмуд Фатхуллаходжаев. Об антонимах в
«Мертвых душах» Н. В. Гоголя 112

Нафиса Нематжонova. Оминабону
Хомиджонova. Нравственные проблемы
в пьесах 1970— 1980 годах 115

Эльвина Аджеминова. Современные тенденции
развития фразеологической стилистики..... 118

Асаль Эргашева. Концептуальная и
языковая картина мира в контексте
когнитивной лингвистики..... 121

Майде Фомина. Принципы построения
медицинских терминов..... 123

Saodatkhan Khodjaeva. Difficulties in translating
phraseological units, proverbs and sayings..... 126

Bakhodir Nematov. The semantics of relative
pronouns in subordinate clauses: a comparison
between english and uzbek 129

Almira Nigmatullina. Standardizing language.
The evolution of terminology 132

Nigora Hayitova. The means and methods of
teaching foreign languages 134

Ilhom Karimov. Sokhiba Normurodova. Several
handful data regarding the usage of adverbs 136

Mahzuna Polvanova. Cultural variations between
uzbek and english phraseological units with the
component expressing "money" 139

Sabina Mirbabaeva.

Teaching and pedagogy in different types of schools with a focus on foreign languages 142

Nasiba Zaripbayeva. While integrati sociolinguistic factor esp for medical students..... 146

Gulnigor Yazdankulova. The effectiveness of Communicative Language Teaching (CLT) in the EFL context: a review of research and practice 150

Yayra Abduraimova. Title: generating elt materials design with ai opportunities and challenges 153

Dilshodjon TOSHPULATOV. How to classify the differences between accurateness and effortlessness in English language? 155

Dilrabo Bekmirzayeva. The Transformative power of imagination: Percy Bysshe Shelley's vision for a better world 158

Farangis Axtamova. The history of epistolary genre in uzbek literature 161

Dilbar Ermetova. The concept of paremiological field in linguistics..... 164

PEDAGOGIKA

Lola Eliboyeva. Boshlang'ich sinflarda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar faolligini oshirishning psixologik, pedagogik xususiyatlari 166

Madina Baxramova. Pedagogika fanini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati 168

Aziza Axmedova. Oliy ta'lim muassasasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish 170

Sevara Bobonazarova. Akmeologik yondashuv asosida talabalarni ijodiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash 172

Shohida Abdiyeva. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga qiziqtirishning ilmiy-nazariy asoslari..... 174

Timur Basharov. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish metodikasi 176

Akbarali Turayev. Masala yechishga o'rgatish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni rivojlantirish usullari 178

Nafisa Ahmatova. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitishda kreativlikni rivojlantirish..... 180

Islambek Mambetnazarov. Akademik eshkak eshishda qayiq elementlarini to'g'ri sozlash orqali eshkak eshish texnikasini takomillashtirish 182

Muhammad Egamberdiyev.

Kikboksing janglarida zarbalar berish aniqligi va uni ta'minlashda muvozanat saqlash turg'unligining o'rni..... 185

Shaxbozbek Zoirjanov.

O'lchov birliklarining xronologik turlari 188

PSIXOLOGIYA

Gullola Raxmonova. Yangi o'zbekiston taraqqiyotida talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini takomillashtirish..... 192

Farida Axmedova. Sog'lom shaxs hayotida psixologik xizmatning o'rni..... 194

Shaxlo Nurullayeva. O'smirlik davrining psixologik xususiyatlari 196

Farxod Nizomov. Xarakter va ramz yaratish: an'ana, o'ziga xoslik 198

KICHIK TADQIQOT

Nafisa Ibadova. Jamiyatda til va madaniyatning o'rni va vazifalari 201

Muyassar Yo'ldoshaliyeva, Nasima Abdullayeva, Yulduz Xoljurayeva. Tezaurus lug'atlarining rivojlanish evolyutsiyasi 203

Laylo Hayitmurodova. O'zbek xalq ertaklarida frazeologik birliklarning leksik – semantik tahlili..... 206

Abror G'afforov. Xrononim lug'atlarini tuzishga doir tamoyil va yondashuvlar 208

Gulnoza Suleymanova. Azim suyun she'riyatida folklor motivlarni o'rganish 210

Shalola Safartosheva. Qayg'usiz Abdolning "Vujudnoma" asari. Asarda uchraydigan tasavvufiy timsollar 213

Sitora Alxiyeva. Omon Matchon she'riyatida "Qalb" motivi 216

Mahliyo Xudoyberdiyeva. "Kecha va kunduz" romani badiiy matnidagi kodlar..... 218

Dilnura Avlaqulova. Usmon Azimning so'z qo'llash mahorati 221

Munira Shonazarova. "Oshiqnoma" turkumi dostonlaridagi she'riy parchalarning shakliy xususiyatlari..... 223

Mubina Rahmonova. Pirsal xalqaro baholash dasturi – boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini oshirish vositasi sifatida: mazmun, mohiyat, maqsad 225

Gulrux Sattorova. Bobur ilmiy-ma'naviy merosining bugungi kundagi ahamiyati..... 228

Muattar Ubaydullayeva. Kasbga oid frazeologik birliklarning leksik semantik xoslanishi 230